https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Gulamova Dilafruz Olimjonovna
Buxoro Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Buxoro shahar 2-son texnikumi o'qituvchisi
Email: gulamova_dilafruz@mail.ru

HADISLARDA TABIAT MASALASIGA OID QARASHLAR VA "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASIDA BELGILANGAN TABIATGA OID MAQSADLAR UYG'UNLIGI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom olamining eng birinchi va oxirgi Payg'ambari bo'lmish Muhammad (s.a.v.) hadislarida tabiat va atrof-muhitga munosabat masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Hadislarda insonning yer yuzidagi mas'uliyatli vakil ekanligi, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish, isrof va zarar yetkazishning qat'iy qoralanishi asosiy axloqiy tamoyil sifatida yoritiladi. Suvni tejash, daraxt ekish, hayvonot va o'simlik dunyosiga mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lishga oid hadislar ekologik tarbiya manbai sifatida talqin etiladi. Shuningdek, maqolada ushbu diniy-axloqiy qarashlarning bugungi global ekologik muammolar fonidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida **belgilangan 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarida keltirilgan** atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashish hamda yashil hududlarni kengaytirishga oid ustuvor maqsadlar bilan hadislar o'rtasidagi mushtarak jihatlar tahlil qilinadi. Maqola natijalari hadislarning zamonaviy ekologik siyosat va barqaror rivojlanish maqsadlarini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashdagi o'rnini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Аннотация:В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется отношение к природе и окружающей среде в хадисах Пророка Мухаммада (мир ему и благословение). В хадисах подчеркивается

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ответственность человека как наместника на земле, необходимость рационального использования природных благ, а также строгий запрет расточительства и нанесения вреда окружающей среде. Хадисы, посвящённые бережному отношению к воде, посадке деревьев, проявлению милосердия к животному и растительному миру, рассматриваются как важный источник экологического воспитания. Кроме того, в статье раскрывается актуальность данных религиозно-нравственных установок в условиях современных глобальных экологических проблем. В исследовании также анализируются общие аспекты хадисов и приоритетных целей, обозначенных в Стратегии развития Республики Узбекистан «Узбекистан – 2030», направленных на охрану окружающей среды, развитие зелёной экономики, эффективное использование водных ресурсов, адаптацию к изменению климата и расширение зелёных территорий. Результаты статьи демонстрируют значение хадисов в духовной поддержке современной экологической политики и целей устойчивого развития.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of attitudes toward nature and the environment as reflected in the hadiths of the Prophet Muhammad (peace be upon him). The hadiths emphasize human responsibility as a steward of the Earth, the rational use of natural resources, and the strict condemnation of wastefulness and environmental harm. Teachings related to water conservation, tree planting, and compassion toward animals and plants are interpreted as important sources of ecological education. The article also highlights the relevance of these religious and ethical principles in the context of contemporary global environmental challenges. Furthermore, the study examines the commonalities between the teachings found in the hadiths and the priority objectives outlined in the Development Strategy of the Republic of Uzbekistan “Uzbekistan – 2030,” including environmental protection, the development of a green economy, efficient use of water resources, climate change adaptation, and the expansion of green areas. The findings demonstrate the role of hadiths in

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

providing moral and spiritual support for modern environmental policy and sustainable development goals.

Kalit so'zlar:inson,tabiat, suv resurslari, ekologik gigiyena, atmosfera**,** tibbiyot, biologiya meteorologiya, ekologik g'oya, isrof, ekologik madaniyat, atrof-muhit, tirik organizmlar

Ключевые слова: человек, природа, водные ресурсы, экологическая гигиена, атмосфера, медицина, биология, метеорология, экологическая идея, отходы, экологическая культура, окружающая среда, живые организмы

Keywords: human, nature, water resources, ecological hygiene, atmosphere, medicine, biology, meteorology, ecological idea, waste, ecological culture, environment, living organisms

1. Kirish (Introduction)

Islom ilmi nafaqat ma'naviy-axloqiy hayot, balki tabiatni idrok etish, ekologik madaniyat va ilmiy tafakkur rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Islom an'anasida hadislar — Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va ta'limotlari — nafaqat diniy axloq, balki tabiatni anglash va uni asrash madaniyatini shakllantiruvchi muhim manba hisoblanadi. So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlar diniy matnlardagi ekologik, gigiyenik va tabiiy-hayotiy masalalarning ilmiy asoslari mavjudligini ko'rsatmoqda. Hadislar suv, atmosfera, hayvonot va o'simlik dunyosi, sanitariya, gigiyena va tabiat bilan muvozanat masalalariga doir ko'plab ko'rsatmalar beradi. Mazkur maqolaning maqsadi hadislar mazmunidagi tabiatga oid ilmiy asoslarni tahlil qilish va ularni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan solishtirishdir. Bu borada O'zbekiston-2030 Strategiyasida belgilangan **2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarida keltirilgan [1]** Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish, barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududlarida **"yashil bog'lari"**ni tashkil etish[1], o'rmonlar maydonini

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni 3.2.- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar bo'limi 67-bandi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

kengaytirish[2], o‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo Islom an’anasida hadislar — Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari, amallari va ta’limotlari — nafaqat diniy axloq, balki tabiatni anglash va uni asrash madaniyatini shakllantiruvchi muhim manba hisoblanadi. So‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotlar diniy matnlardagi ekologik, gigiyenik va tabiiy-hayotiy masalalarning ilmiy asoslari mavjudligini ko‘rsatmoqda [3].Hadislar suv, atmosfera, hayvonot va o‘simlik dunyosi, sanitariya, gigiyena va tabiat bilan muvozanat masalalariga doir ko‘plab ko‘rsatmalar beradi. Mazkur maqolaning maqsadi hadislar mazmunidagi tabiatga oid ilmiy asoslarni tahlil qilish va ularni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan solishtirishdir, hududlarda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish, biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash[3], hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirishga qaratilgan maqsadlarining amalda joriy etilishi bilan bog’liq muammolarni yechimini topishga qaratilgan islohotlar hadislarda ham bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida bayon etilganligini kuzatish mumkin.

2. Usullar (Methods)

Tadqiqot quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi:

Matn tahlili — “Sahih al-Buxoriy”, “Sahih Muslim”, “At-Termiziy” kabi eng ishonchli hadis to‘plamlari tanlandi.

Tematik tasnif — hadislar tabiatga oid yo‘nalishlar bo‘yicha: suv, atmosfera, hayvonot, o‘simliklar, ekologik gigiyena kabi guruhlarga ajratildi.

Ilmiy solishtirish — hadislarning mazmuni zamonaviy ekologiya, tibbiyot, biologiya va meteorologiya ma’lumotlari bilan taqqoslandi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni 3.2.- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar bo’limi 68-bandi

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni 3.2.- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha islohotlar bo’limi 71-bandi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Analitik tahlil — ilmiy moslik, mantiqiy izchillik va ekologik qadriyatlarning shakllanishidagi roli o‘rganildi.

3. Natijalar (Results)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hadislar tabiatni asrash va ekologik gigiyenani ta’minlash borasida zamonaviy ilmiy qarashlarga mos keladigan ko‘plab tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

1) Suv resurslarini tejashga doir hadislar

Payg‘ambar (s.a.v.)ning: “Daryodan tahorat qilayotgan bo‘lsang ham isrof qilma”(2)[4] degan hadisida suvning ekologik va iqtisodiy ahamiyati ilmiy jihatdan tasdiqlanadi. Zamonaviy ekologiya ham suvni tejash global muammo ekanligini ko‘rsatadi.

2) Gigiyena va sanitariya

Hadislarda qo‘l yuvish, tish tozalash, kiyim pokligi, ovqatdan oldin gigiyena, atrofni toza tutish, chiqindilarni ko‘chalarga tashlamaslik kabi ko‘rsatmalar mavjud. Masalan:

“Poklik — iymonning yarmidir.” [10]

Hozirgi tibbiyot bu amallar kasalliklarning oldini olishda muhimligini isbotlagan.

3) Atmosfera va havo sifati

“Yo‘llarni ozor beruvchi narsalardan tozalash sadaqadir” degan hadis atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga qaratilgan. Bu ekologik xavfsizlikning zamonaviy tamoyillaridan biri bilan mos keladi.

4) Hayvonot va o‘simliklarni asrash

Hayvonlarga yaxshi munosabat, ularni qiynamaslik, daraxt ekish va tabiatni tiklashga doir hadislar ekologiya fanidagi “barqaror rivojlanish” g‘oyalariga mos tushadi.

“Kim daraxt eksa va undan biror jonzot foydalansa, bu unga sadaqa bo‘ladi.” [9]

[4] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf , “Isrof” kitobi, “HILOL-NASHR”nashriyoti, 2015-y.5-son.33-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“Kim bir daraxt eksa, uning mevasidan odam, hayvon yoki qush yegan bo‘lsa ham, bu uning uchun sadaqa bo‘ladi.”[5] [2]

Hayvonlarga mehribon bo‘lish borasida:

Yana bir hadisda Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.): “Bir ayol mushukka zulm qilgani uchun do‘zaxga kirdi.” deb aytib o’tadilar.[6]

4. Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar hadislarning tabiatga oid qoidalari faqat diniy buyruqlar emas, balki ilmiy asosga ega amaliy tavsiyalar ekanini ko‘rsatadi. Hadislar ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular:

-jamiyatda tozalik va sanitariya qoidalarining shakllanishiga;

-suv va havo ifloslanishini kamaytirishga;

-tabiat ne’matlariga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishga;

-inson va tabiat o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi ekologik etika rivojiga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatdiki;

-Barqaror rivojlanish: O‘simliklar ekish, hayvonlarga mehr, havo sifati va suv resurslarini muhofaza qilish zamonaviy ekologik barqarorlik strategiyalari bilan uyg‘un.

-Ijtimoiy ahamiyat: Hadislar ekologik madaniyatni erkak, ayol, yosh, qari – barcha toifadagi insonlar uchun umumiy majburiyat sifatida talqin qiladi.[7] [5]

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hadislar zamonaviy fan tomonidan tasdiqlangan tabiatni asrashga qaratilgan ko‘plab ilmiy asoslangan g‘oyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular bugungi global ekologik muammolarni hal qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

[5] Oltin silsila.Sahihul Buxoriy.”HILOL-NASHR” nashriyoti,T;.2022-y.2320-hadis.
[6] Oltin silsila.Sahihul Buxoriy.”HILOL-NASHR” nashriyoti,T;.2022-y.559-hadis.

[7] Xojagon-Naqshbandiya tariqatida tabiatga munosabat respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.Buxoro,”Durdona”2025y. 318-b.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muhokama va Xulosa

Hadislar nafaqat diniy-axloqiy matn, balki tabiatni anglash va ekologik madaniyatni shakllantirishning muhimi manbaidir. [6] Suvni tejash, havo tozaligini ta’minlash, o‘simlik va hayvonotga mehr ko‘rsatish, gigiyenaga amal qilish haqidagi hadislar zamonaviy ilmiy qarashlar bilan mos keladi[7] va ba’zan ulardan oldinroq ilgari surilgan. Shu bois hadislar tabiat muammolarining ilmiy asoslanishi va ekologik tafakkurning rivojida katta ahamiyatga ega.

Quyida hadislarda tabiat masalasiga oid qarashlar bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan tabiatga oid maqsadlar uyg‘unligi asosida ishlab chiqilgan takliflar keltiriladi:

Ekologik tarbiyani ma’naviy asosda kuchaytirish

Hadislarda tabiatni asrash, isrof qilmaslik, yer va suvga zarar yetkazmaslik insonning iymoniy mas’uliyati sifatida talqin etiladi. Shu asosda maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida ekologik fanlar mazmuniga hadislar asosidagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni kiritish taklif etiladi. Bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ekologik madaniyatni yuksaltirish maqsadiga xizmat qiladi.

Yashil hududlarni kengaytirishda diniy-ma’naviy targ‘ibotni yo‘lga qo‘yish

Daraxt ekish va uni parvarish qilish haqidagi hadislar aholini ko‘kalamzorlashtirish ishlariga faol jalb etishda samarali ma’naviy omil bo‘la oladi. Masjidlar, jamoat tashkilotlari orqali “daraxt ekish – savobli amal” g‘oyasini targ‘ib qilish strategiyadagi yashil hududlarni kengaytirish maqsadiga mos keladi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanishni targ‘ib qilish

Hadislarda suvdan me’yorida foydalanish, hatto mo‘l bo‘lsa ham isrof qilmaslik ta’kidlanadi.[8]Ushbu qarashlarni aholiga yetkazish orqali suv tanqisligi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

sharoitida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan suv resurslarini tejash va samarali boshqarish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilishni axloqiy qadriyat sifatida qarash

Hadislardagi hayvonlarga mehr-shafqat ko‘rsatish haqidagi ko‘rsatmalar biologik xilma-xillikni asrash bo‘yicha davlat siyosatini ma’naviy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ekologik siyosatda diniy-ma’naviy merosdan foydalanish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot maqsadlarini amalga oshirishda hadislar asosidagi axloqiy tamoyillarni targ‘ibot vositasi sifatida qo‘llash taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni
2. Oltin silsila.Sahihul Buxoriy.”HILOL-NASHR” nashriyoti,T;.2022-y.2320-hadis.
3. Karimov, Sh. “Islom va ekologik tafakkur.” – Toshkent: 2020.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf , “Isrof” kitobi, “HILOL-NASHR”nashriyoti, 2015-y. 5-son.33-bet
5. Xojagon-Naqshbandiya tariqatida tabiatga munosabat respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.Buxoro,”Durdona”2025y. 318-bet.
6. O’zbekiston Respublikasi Oliy majlis huzuridagi NTT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo’llab quvvatlash jamoat fondi loyihasi doirasida tashkil etilgan “Shukronalik tinchlik va ahillik asosi “mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari to’plami.Buxoro.2024y.181-bet

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

7. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ.PEDAGOGIKA. ISSN 2181-1571 https://journal.fdu.uz 2025/№1.42-bet

8. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO ADABIYOT, SAN’AT,MADANIYAT VA IJTIMOIY FANLAR AKADEMIYASI MA‘MUN UNIVERSITETI NTM. “MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY VA NAJMIDDIN KUBRONING ISLOM SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O‘RNI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Urganch – 2025y.308-bet

9. Educational research in universal sciences, 2(5), 296–300. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/3135.2023 iyun 297-bet.

10. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari" ilmiy-amaliy konferensiyasi. Google schoolar. Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.10911137 03.04.2024. 21-bet